

## DARSLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA “O’YIN” TEXNOLOGIYASINING AFZALLIKLARI

*Shukurov Xursan Gadoyevich, Norova Intizor Haqberdiyevna  
matematika fani o‘qituvchilari, BuxMTI akademik litseyi*


**Annotatsiya:** Maqolada darslarni tashkil etishda yangi pedaggok texnologiyalardan, xususan “O’yin” texnologiyasidan foydalanish haqida fikr yuritilgan va undan foydalanishga doir misollar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** texnologiya, ta’lim-texnologiyasi, interfaol, o`qituvchi, o`quvchi, dars, metod.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini o`quvchilarni faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyatni tashkil etadi. O‘yin olimlar tadqiqotlariga ko‘ra mehnat va o‘qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlaming ta’kidlashlaricha, o‘yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o‘zini namoyon qilish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O‘yin ijtimoiy tajribalami o‘zlashtirish va qayta yaratishga yo‘nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o‘z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. D.N. Uznadzening ta’rificha, o‘yin shaxsga xos bo‘lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir. L.S. Vigodskiy o‘yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflaydi. A.N. Leontev o‘yinga shaxsning xayolotdagi amalga oshirib bo‘lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi. Psixologlar ta’kidlaydilarki, o‘yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog’liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o‘yin o‘ziga xos bo‘ladi. O‘yinli faoliyat muayyan funksiyalami bajarishga bag‘ishlangan bo‘ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik ;
- kommunikativlik ;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik ;
- tashxis;
- millatlar a’ro muloqot;
- ijtimoiylashuv .

Tadqiqotchilar O‘yin xususiyatlarini ishlab chiqqanlar. O‘yinlarning muhim qirralari S.A.Shamakov tomonidan yoritilgan. U erkin rivojlanuvchi faoliyatni farqlaydi. Bunday faoliyat faqat natija (tadbir) tufayli bahra olish uchun emas, balki xohishlariga ko‘ra, faoliyat jarayonining o‘zidan bahra olish uchun qo’llanadi.



O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga — «ijod maydoni»ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtinchalik izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar. Tadqiqotchilar nazariy aspektida o'yinga faoliyat, jarayon va o'qitish metodi sifatida qaraydilar. O'yin faoliyat sifatida maqsadni belgilab olish, rejalishtirish va amalga oshirish, natijalami tahlili qilishni qamrab oladi va bunda shaxs subyekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalarni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limga pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlami vujudga keltirish yotadi. I G.K. Selevko tomonidan

pedagogik o‘yinlar tasnifi va uni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Pedagogik o‘yinlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda bo‘ladi:

- didaktik maqsad o‘yinli vazifa shaklida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyati o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;
- o‘quv materialidan o‘yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- oquv jarayoniga didaktik vazifa o‘yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvafaqiyatli bajarilishi o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Maktab dars jarayonlarida tashkil etiladigan har bir didaktik o‘yin o‘quvchining yosh chegarasi qarab tanlangani maqsadga muvofiq. O‘yin o‘quvchida kreativlikni oshirishi, darsga bo‘lgan qiziqishini orttirishi lozim. O‘quvchini ko‘pincha odatiy zerikarli ma‘ruza mashg`ulotlari zeriktirishi aniq. Zamonaviy texnologiyalar rivojlaniyotgan ushbu asrimizda o‘quvchi ko‘nglidan joy olish pedagogning asosiy zimmasida turgan vazifadir. O‘yin texnologiyalari to`g`ri tashkil qilinsa agar, bu vazifada pedagog uchun asosiy qurollardan biri bo‘ladi. Odatiy darsdan zerikkan o‘quvchi ham zamonaviy texnologiyalar va yaxshi tashkil qilingan didaktik o‘yinlar orqali darsga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshadi. Bu hozirgi zamon pedagogi uchun ajoyib yutuq.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. N.N.AZIZZO`JAYEVA Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti. 2006, 160 b.
2. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnalogiya. Monografiya Toshkent ,2003.